

Zamonaviy ta'lim jarayonlari va chet tilini o'rganishda axborot texnologiyalarining o'rni

Ramziya Razzoqovna Jo'rayeva
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani, 2-maktab

Annotatsiya: Ushbu maqola chet tili o'rganishda innovatsion texnologiyalardan keng miqyosda samarali foydalanish, shu bilan bir qatorda, ta'lim tizimida uning ahamiyatini oshirish singari muhim masalalarni yoritishga qaratilgan. Bundan tashqari, zamon talablariga mos keladigan texnologik jihozlardan foydalanishning o'ziga xosliklarini qamrab olishga ham alohida urg'u berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: video-darslar, komputer, proyektor, IT, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, AKT vositalari, pedagog

The role of information technologies in modern educational processes and foreign language learning

Ramziya Razzokovna Jorayeva
Navoi region, Kyziltepa district, School №2

Abstract: This article is aimed at elucidating such important issues as the large-scale effective use of innovative technologies in foreign language learning, as well as increasing its importance in the educational system. In addition, special emphasis is placed on covering the specifics of using technological equipment that meets the requirements of the time.

Keywords: video lessons, computer, projector, IT, information and communication technologies, ICT tools, pedagogue

Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim jarayonida juda ko'plab o'zgarishlar olib borilmoqda. Masalan yoshlarga chet tillarini o'rgatish uchun barcha qulay imkoniyatlar yaratilyapti. Jumladan, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, maktab o'quvchilari va shu bilan birga oliy ta'lim muassalarida tahsil olayotgan talaba yoshlarimiz ham chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi juda yuqori. Aytib o'tish joizki yoshlarning chet tillarini o'rganishida axborot texnologiyalarining ham o'rni katta. Masalan ta'lim oluvchilar o'quv kurslarini onlayn va ana'naviy tarzda o'rganishlari mumkin. Onlayn tarzda chet tillarini o'rganish har tomonlama qulay va keng qamrovli hisoblanadi. Shu bilan birga onlayn darslar yoshlarni ya'ni ta'lim oluvchilar uchun juda qiziqarli.

Axborot texnologiyalari hozirgi kunda hayotimizning asosiy bir qismiga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Axborotlarni to'plash, saqlash va ular ustida ko'plab amallar bajarish kundan-kunga takomillashib bormoqda.

Barchamizga ma'lumki, XXI asr - innovatsion texnika va texnologiyalar davri. Shu bilan bir qatorda, chet tillarini ushbu soha bilan uyg'unlikda o'rganish yanada ahamiyatga molikdir. Xususan, maktab darslarida komputer hamda proyektor kabi texnik jihozlardan foydalangan holda video-darslar yoki innovatsion loyihamar tayyorlash axborot texnologiyalarida unumli foydalanayotganimizni ko'rsatadi. Yana shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, maktablarda o'tiladigan ingliz tili, fransuz tili hamda nemis tili darsliklarida har bir dars uchun taalluqli audiolarda foydalanish ham o'quvchilarning tinglab tushunish mahoratini oshirishda yaqindan yordam beradi. Chet tillarni IT sohasi bilan birgalikda olib borish bu haiqiy innovatsion yutuqdir. An'anaviy dars tashkil etish usulidan ozgina chekingan holda, darsni noodatiy tarzda innovatsion texnologiyalardan foydalanib tashkil etish ham, shu o'rinda, o'qituvchini darsga qay darajada yondashishini va ijodkorlik mahoratini yaqqol namoyon etadi.

Axborot texnologiyalaridan yoshlarning bemalol foydala olishi jamiyatdagi rivojlanish, kadrlarning soha bo'yicha xabardorligi hamda yosh avlodning bilim salohiyatini raqamlarda ko'rsatadi.

Finlandiya ta'lim tizimiga asoslangan yangi turdag'i maktab darsliklarida foydalanilgan mashqlar ham, asosan, axborot texnologiyalarining salmog'i va ahamiyatidan darakdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon taraqqiyoti yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish" ishlari va buning uchun bir qator muhim vazifalarni amalga oshirish zarurligi ko'rsatilgan. Mazkur hujjatda 2013-2014 o'quv yilidan boshlaboq umumiyligi o'rta ta'lim maktabalarining birinchi sinflaridan chet tillari avval o'zin tarzida keyinchalik asosiy ta'lim fani sifatida AKT vositalaridan foydalangan holda o'qitish belgilab berilgan. Ushbu muhim Qarorga muvofiq bugun, ayniqsa, chet tillarini o'rganish darslariga yanada chuqurroq nazar tashlandi. Jahon maydonida yurt sha'nini munosib himoya qilishi uchun yoshlarimiz, avvalo o'zining xorijiy tengdoshlari bilan raqobatlasha olishi lozim.

Darhaqiqat, ta'lim sifatini yaxshilash, kelajakda yetuk kadrlar tayyorlash ham salmoqli darajada axborot tizimining mukammalligi bilan bog'liq. Hozirgi davr

yoshlari uchun chet tilini o‘rganish bilan bir qatorda, media savodxonligini oshirish ham birdek muhimdir.

Ta’lim jarayonlarini tashkil etish uchun axborot tizimini tashkil qilish, ularni nafaqat chet tilini o‘rganishda, balki, boshqa fan sohalarini rivojlantirishda ham qo‘llay bilish va texnik uslublarlarni davr talablariga mos tarzda joriy qilish mahoratli pedagoglar uchun ustuvor vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yuksak manaviyat - yengilmas kuch.87-88-betlar, Ziyo. Uz.Ta’lim. Uz.
2. Пармонов, А. А. Chet tilni o‘rganishda axborot texnologiyalarining ahamiyati / А. А. Пармонов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 39-40. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39051/> (дата обращения: 21.05.2024).
3. Kakhhorov S.K., Zhuraev A.R. Method of application of virtual stands in teaching subjects of electrical engineering, radio engineering and electronics// LXII International correspondence scientific and practical conference «International scientific review of the problems and prospects of modern science and education» (Boston. USA. September 22-23). 2019. - P. 44-47.
4. Zhuraev AR. The choice of the optimized content of labor education and the methodology of its training (5A112101 - Methodology of labor training). Tashkent - 2014 from 107.
5. Bakhranova U.I., Khaidarova F.Sh., On the Fredholm determinant associated with the family of generalized Friedrichs models // "Advances in Science and Education" monthly scientific - methodological journal № 7 (8) / 2016 - Russia, Moscow P 5 - 7.